

RANGSHUNOSLIK TEXNOLOGIYALARIDAN ZAMONAVIY QUROQ TEXNIKASI JARAYONLARIDA FOYDALANISH

Radjapova Zuxra Tirkashevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti "Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi" kafedrasida v.b. pofessori E-mail: zuxratirkashevna@gmail.com

Safasheva Surayyo Sadikovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "San'at" kafedrasida o'qituvchisi safashevasurayyo1977@gmail.com

Annotasiya: *Mazkur maqola talabalarga rangshunoslikni o'qitishning ham o'ziga xos o'rni va ta'limning tarixiy-milliy merosi, xususan, rangshunoslik texnologiyalaridan zamonaviy quroq texnikasi jarayonlarida foydalanish muhim ahamiyati. Ranglarning tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalishi muammosi borasida mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Nyuton, Lomonosov, Gelmgolts, axromatik (rangsiz) va xromatik (rangli), quyoshni eslatuvchi sariq, to'q sariq, sarg'ish, zarg'aldoq, qizil va boshqa ranglar, muzni, qorni eslatuvchi xavorang, zangori, ko'kish yashil, to'q binafsha ranglar, bodom guli.*

Абстрактный: *В данной статье рассматривается особая роль преподавания колористики студентам, а также значение историко-национального наследия в системе образования, в частности — важность использования технологий колористики в современных процессах техники лоскутного шитья (квилтинга). Приводятся также рассуждения по проблеме образования и распространения цветов в природе.*

Ключевые слова: *Ньютон, Ломоносов, Гельмгольц, ахроматические (бесцветные) и хроматические (цветные), желтый, оранжевый, желтоватый, рыжеватый, красный и другие цвета, напоминающие солнце, синий, сине-зеленый, темно-фиолетовый цвета, напоминающие лед и снег, цветение миндаля.*

Abstract: *This article discusses the unique role of teaching students color science and the historical and national heritage of education, in particular, the importance of using color science technologies in modern patchwork techniques. It also discusses the problem of how colors are formed and distributed in nature.*

Key words: *Newton, Lomonosov, Helmholtz, achromatic (colorless) and chromatic (colored), yellow, orange, yellowish, tawny, red and other colors reminiscent of the sun, blue, blue-green, dark purple colors reminiscent of ice and snow, almond blossom.*

KIRISH

Kadrlar tayyorlashning milliy dasturlarida ko'rsatilishicha ta'lim tizimi davlatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarini amalga oshirish jarayonida printsiplial ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sohasidagi islohotlarni asosiy bo'laklaridan biri

o'quvchi talabalarining bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirilganlik darajalarini nazorat qilishdan iborat.

Respublikamizda yuqori texnologik jarayonlarni rivojlantirishda kasb-hunar kollejarida va OTMlarda rangshunoslikni o'qitishning ham o'ziga xos o'rni bor. Zero, ixtisosligi bo'yicha chuqur nazariy bilimga hamda mustaxkam amaliy tajribaga ega bo'lgan malakali kadrlar va mutaxassislar tayyorlash hozirgi kunning muhim pedagogik muommosidir.

Kadrlar tayyorlash sifatini hozirgi zamon ishlab-chiqarish, fan va texnikaning talablarini, shuningdek, ularning kelajakda rivojlanish istiqbollarini e'tiborga olgan holda muntazam takomillashib borishi talab etiladi. Bu jarayonda ta'limning tarixiy-milliy merosi, xususan, rangshunoslik texnologiyalaridan zamonaviy quroq texnikasi jarayonlarida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'lim talabalarini faqat nazariy bilimga emas, balki amaliy ko'nikma, ijodiy fikrlash va ekologik madaniyatga ega bo'lishga yo'naltirilmoqda. Shular qatorida quroqchilik – material qoldiqlarini (mato, teri, ip) ulash, qavish, tiklash va qayta ishlash orqali ranglarni bir-biriga uyg'unlashtirgan holda foydali buyumlar tayyorlash milliy hunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri sifatida katta ahamiyatga ega.

O'zbek xalq amaliy san'at tarixidan quroq tikish san'ati xalqimizning nafaqat estetik did sohibi, balki isrofgarchilikka yo'l qo'ymaydigan, tejamkor va san'atga oshno qalb egasi ekanligidan ham dalolat beradi. Shuni a'lohida ta'kidlab o'tish joizki, xalqimiz yaratgan har bir quroq san'at asari namunalardagi belgilar, bezaklar va ramzlar so'zlaydi. Chunki, san'at namunalarning hech bir qismi shunchaki emas, ulardagi har bir detal, ranglar va ko'rinish xalq turmush tarzi, orzu umidlari va an'analarini o'zida aks ettiradi.

Tabiatdagi mavjud ranglarni ikki qismga: axromatik¹ va xromatik ranglarga ajratish mumkin. Oq kul rang va qora ranglar hamda ularni har xil nisbatda aralashtirishdan hosil bo'ladigan barcha ranglar turlari axromatik ranglar deyiladi.

Axromatik ranglarning xromatik ranglardan farqi shuki, ular tanlamay yutish va qaytarish xossalariga ega. Axromatik ranglardan boshqa barcha ranglar, ya'ni biror rang tusiga ega bo'lgan ranglar xromatik ranglarga kiradi.

Har bir xromatik rang uchta xossaga: rang tusiga, rang yorqinligiga (ya'ni kam yoki ko'p yorqinligiga), rang kuyinganligiga (ya'ni rang quyugligiga) ega bo'ladi.

Mashhur olimlar ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar. M.V.Lomonosov fanda birinchi bo'lib asosiy ranglarni kashb etgan. Nyuton ranglarni fizika fani nuqtai nazaridan o'rgangan bo'lsa, nemis shoiri va san'atshunosi I.V.Gyoteni ranglarning kishi organizmiga ko'rsatadigan ta'siri ko'proq qiziqtirgan. U «Ranglar haqidagi ta'limot» nomli asarida ranglarni iliq va sovuq turlarga ajratgan. Iliq (sarg'ish, qizil) ranglar kishida kayfichog'lik tuyg'usini, sovuq (havorang, yashil) ranglar esa ma'yuslik tuyg'usini uyg'otishi haqida yozgan.

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L.Gelmgolts rangshunoslik nazariyasida muhim yangilik yaratdi. Ko'p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarning uchta asosiy

alomati – rang tusi, rangning och-to‘qligi va to‘yinganligi asosida turkumlash zarurligini ko‘rsatdi.

Ilmiy izlanishlar va amaliyot jarayonida qator qonun qoida ishlab chiqilgan bo‘lib, talaba o‘zining o‘quv jarayonida va ijodiy ishida ularga amal qilishi shart.


Quroq tayyorlash texnologiyasida axromatik va xrovatik ranglarga tayangan holda ijodkor o‘ziga xos yondoshuv, did va sabr orqali yangi uslub motivini yaratadi. Chunki, haqiqiy quroq ranglar uyg‘unligi orqali san‘at asari ko‘rinishini oladi. Quroq ijodkori o‘zining estetik didini, shu bilan birga o‘lkasining mahalliy xususiyatlarini ham namoyon etadi. Quroqlarda tabiat ko‘rinishi, maishiy sahnalar, handasaviy kompozitsiyalar namoyon bo‘ladi. Quroqchilik san‘ati orqali xalq ijodiyotidagi qadimiy bezaklar, ramzlar, belgilar jonlanadi. Dekorativ va tasviriy motivlar tiniq, sodda jaranglaydi va ular iliq rangli matolar vositasida bajariladi.

Rangshunoslikdan foydalanishning yana bir muhim tomoni uning talabaga mavzu yoki mavzuga tegishli tushunchalarni to‘la va aniq tasavvur etishida qulay didaktik sharoit yaratishidir. Zero, bu yo‘nalishdagi ta‘limning asosiy vazifasi esa ana shu amaliy bilimlarni shakllantirish va uni rivojlantirishning intensiv yo‘llari, usullari va metodikasini ishlab chiqishdan iborat.


1-mashq: Asosiy ranglar. Ma‘lumki asosiy ranglar tabiatdagi qizil, sariq, ko‘k. 4x4 sm li to‘rt burchak va ularning ichiga mos naqsh elementidan tuziladi. Birinchi qatordagi shakllarni qizilga, ikkinchi qatordagi shakllarni sariq ranga bo‘yaladi va nixoyat uchinchi qatordagi shakllarni ko‘k ranga bo‘yaladi.



2-mashq: Bo‘yog‘larni aralashtirib qo‘shimcha ranglar xosil qilish. Bu mashqni bajarish uchun ixtiyoriy o‘lchamdagi gullardan tashkil topgan aylana shakldagi naqsh kompozitsiyasi chiziladi.



3-mashq: Spektr ranglar. Bu mashqni bajarishda birinchi bo‘lib naqqoshlikdagi eng dastlabki bodom guli chiziladi. Spektr rang



xil bo‘lganligi uchun bodom gul shakldan 7 dona chiziladi. Buning uchun chap tarafdin bo‘yash boshlanadi. Chap tarafdin 1 chi barg qizil ranga bo‘yaladi keyingisi zarg‘aldoq keyin sariq, yashil, ko‘k, zangori va nixoyat binafsha ranga bo‘yaladi.

Bu barglarni bo‘yashda ketma-ketlikni xuddi yozilgandek bo‘lishi kerak. Chunki spektr ranglar shunday ketma-ketlikda joylashgan.



Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, rangshunoslik texnologiyalaridan zamonaviy quroq texnikasi jarayonida foydalanilganda ranglarning xususiyatlari, ularning o'zaro ta'siri va amalda qo'llanish usullari o'rganiladi. Bu soha san'at, dizayn, ta'lim, reklama, me'morchilik va texnologiyada keng qo'llaniladi. Shuningdek, ranglar tabiati, ularning inson psixologiyasiga ta'siri va ranglarni to'g'ri tanlash qoidalarini o'rganadigan ilmdir. Gazlama bilan ishlaydigan har qanday ustada qolgan qoldiqlarni tashlamasdan san'at asari yaratishi, bu bir tomondan, ayollarga xos tejamkorlik, sarishtalilikdan dalolat bersa, ikkinchi tomondan, ayollarning yaratuvchanlik qobiliyatini namoyon etadi.

Quroqlarning chiroyli chiqishi unda tanlangan gazlama qiyqimlarining to'ldiruvchi tarkibi, qiyqimlarning, rang uyg'unligi, mutanosibli, iplarni to'g'ri tanlanishi, ishlov berish sifati hamda chevarning ijodkorlik qobiliyatiga bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Набиев М. Рангшунослик-Т;-Т; Ўқитучи, 1995-38 б
- 2.Niyazov K Tarbiyada sharqona pedagogik mohiyat. 22.02.2024. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari.,Qo`qon. 281-285. <http://pedagoglar.org/index.php/04/article/view/164>
- 3.Niyazov. K. Bekimtova.S. Ta'lim-tarbiya va barkamol shaxs masalasi Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from Paris, France. Date: 19th February, 2024 ISSN: 2835-3730
- 4.Tirkashevna, R. Z Radjapova, Z. T. (2024). RESPUBLIKAMIZDA MADANIY LANDSHAFTNI SAQLASH VA TIKLASH. Inter education & global study, (7), 117-123.
- 5.Radjapova, Z. (2025). BO 'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINING KREATIV FIKRLASH QOBILIYATINI LANDSHAFT DIZAYNI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI, 3(1).
6. (2023). PEDAGOGIK KOMPETENTLIK-SHAXSGA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING MUHIM SHARTI.Science and innovation, 2(Special Issue 9), 125-128.
- 7.Tirkashevna, R. Z. (2023). LANDSHAFT DIZAYNI BO 'YICHA TA'LIM: MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR. Лучшие интеллектуальные исследования, 4(1), 158-164.
8. Tirkashevna, R. Z. (2024). BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINING KREATIV FIKRLASH QOBILIYATINI LANDSHAFT DIZAYNI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI. In Proceedings of International Educators Conference (Vol. 3, No. 3, pp. 178-181).
9. Раджапова, З. Т., & Мирзаева, Г. З. (2023). ИННОВАЦИОННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ В ЛАНДШАФТНОМ ДИЗАЙНЕ.(в дошкольных образовательных организациях). Analysis of world scientific views International Scientific Journal, 1(4), 70-76.
- 10.Tirkashevna, R. Z. (2023). LANDSHAFT DIZAYNI BO 'YICHA TA'LIM: MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR. Лучшие интеллектуальные исследования, 4(1), 158-164.
11. Radjapova, Z., & Abdurafova, U. (2023). THE IMPORTANCE OF USING METHODS IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH. Science and innovation, 2(B1), 337-340.
12. Radjapova, Z. (2023). Some Aspects of Increasing the Creative Competence of Professors-Teachers in Higher Education Institutions. Telematique, 22(01), 2646-2652.
- 13.S.S.Safasheva. Milliy an'analar asosida talabalarni quroqchilikka o'rgatish metodikasini takomillashtirish. PEDAGOGIKA. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 6/2025, 264-268b

14.S.S.Safasheva . Quroq texnikasini qo'llash resurstejamkor texnologiyaning muhim instrumenti sifatida qo'llanilishi. QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI TOMONIDAN O'TKAZILGAN "SHAXSIY AHAMIYATGA EGA BO'LGAN TA'LIM-TARBIYANI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION MODELLARI VA UNI PEDAGOGIK JARAYONGA TRANSFORMATSIYALASH MEKANIZMLARI" MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA . 2025-yil 4-dekabr. – T.: TPMI, 2025. UDK: 371.2-028 (300-304b).

15.S.S.Safasheva ZAMONAVIY LIBOSLARDA QUROQ TEXNIKASINI QO'LLASH <https://doi.org/10.5281/zenode.18381157.www.lajoe.otg>. Latin American Journal of .2026 –yanvar. (587-591).

Qo'shimcha adabiyotlar:

16. Sh. Mirziyoyev, "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori..

17.“ Kim Ritter Pechvork quilting”. Москва-2007год.

18.M.Sh.Jabborova “Tikuvchilik texnologiyasi”. – T.: “O'zbekiston”, 1994.

19. Людмила Чернышева.«Лоскутное шитье». Москва: АСТ, 2014

20. Бурлака.Е.А.«Печворк без иглы». АСТ-Пресс: 2015год.

21. Kostyum tarixi uslubiy, 2021